

elektr energiyasini tejash bo'yicha (yillik va uzoq istiqbol uchun) tashkiliy-texnik tadbirlarni shlab chiqish va amalga oshirish.

"Iste'molchi" "Ta'minotchi korxona" tomonidan belgilangan energiya iste'molini cheklash advalini bajarishi shart.

"Iste'molchi" qonun hujjaligiga muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega.

4.3. "Ta'minotchi korxona" quyidagi huquqlarga ega:

iste'molchilardan elektr ta'minoti shartnomasida belgilangan majburiyatlarni tegishli darajada bajarishni talab etish;

iste'molchilar tomonidan elektr ta'minoti shartnomasi shartlari bajarilmasligi yoki buzilishi oqibatida unga yetkazilgan zararning belgilangan tartibda qoplanishi;

avariya rejimida iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish (o'chirish);
EHNATga ulangan va oldindan to'langan mablag' tugagandan so'ng elektr energiyasi uchun oldindan to'lovnii amalga oshirish qurilmasiga ega hisobga olish asbob mavjud bo'lган iste'molchilarni uzish. Bunda uzilgandan so'ng iste'molchining ko'rishi mumkin bo'lган zarari uchun "Ta'minotchi korxona" javobgar bo'lmaydi.

Mazkur Qoidalar va boshqa normativ-huquqiy hujjalarda nazarda tutilgan holatlarda iste'molchilarni elektr tarmoqlaridan uzish oqibatlari uchun javobgar bo'lmaydi.
"Ta'minotchi korxona" qonunchilikda belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4.4. "Ta'minotchi korxona" quyidagilarga majbur:

"Iste'molchi"ga elektr energiyasini elektr tarmog'i orqali elektr tarmoqlarining balans bo'yicha mansublik bo'linish chegarasigacha shartnomada ko'rsatilgan xajmda muntazam yetkazib berish;

uskunalar, elektr uzatish liniyalarini, hisobga olish priborlaridan foydalanish, ularga texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash, shuningdek, o'z elektr xo'jaligi obyektlaridagi nosozliklarni bartaraf qilish;

elektr tarmog'i ho'jaligi obyektlarini rejali ta'mirlanishi tufayli elektr energiyasi bilan ta'minlashdagi mumkin bo'lган uzilishlar to'g'risida kamida 3 kun oldin ogohlantirish;

"Iste'molchi"ni elektr energiyasini yetkazib berilishi to'xtatilishi va to'xtatilish sabablari to'g'risida xabardor qilish (Iste'molchi mas'ul xodimlarini uyali aloqa vositasi orqali (telefonogramma), ovozli xabar, telegram xabarnoma, SMS xabar orqali, internet sayt tarmoqlari orqali yoki yozma tarzda);

kiritilayotgan cheklashlar to'g'risida, cheklashlarni xajmi va vaqtin ko'rsatilgan holda "Iste'molchiga" oldindan xabar berish;

elektr energiyasi to'liq yetkazib berilmaganligi yoki elektr ta'minotidagi boshqa buzilishlar to'g'risidagi "Iste'molchi"ning arizasini, ariza olingan kundan boshlab 10 kundan kechiktirmay ko'rib chiqish, "Elektr energiyasidan foydalanish Qoidalari"ga muvofiq bartaraf etish va bat afsil javob yuborish;

"Iste'molchi"ga o'rnatilgan tartibda yetkazib berilgan energiya hisobini yuritish;

"Iste'molchi"ning belgilangan tartibda kiritilgan takliflariga muvofiq besh kun muddatda elektr energiyasining oylik shartnomaviy hajmiga o'zgartirishlar kiritish, elektr energiyasining oylik shartnomaviy miqdorini ko'paytirish (kamaytirish) mumkin bo'lmanan taqdirda - bu haqida, rad etish sababini ko'rsatgan holda, iste'molchiga xabar qilish;

"Iste'molchi"da o'rnatilgan hisobga olish priborlarini almashtirish va o'rnatish, plombalashni ta'minlash;

davlat standartiga muvofiq bo'lган elektr energiyasini yetkazib berish.